

**PRIMQUL QODIROV . "YULDUZLI TUNLAR" ROMANIDAN BOBLAR.
"MUHOKAMA QILAMIZ " BOSQICHI TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH**

Toshkent tumani MMTB ga qarashli

27-sonli maktabning Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Akilova Nargiza Xudoynazarovna

Annotatsiya. Ushbu dars ishlanma 7-sinf o'quvchilariga " Primqul Qodirov . "Yulduzli tunlar" romanidan boblar. "Muhokama qilamiz " bosqichi topshiriqlari bilan ishlash" haqida tushuncha beradi.

Kalit so'zlar. Adabiyot, asar, yulduzli tunlar, muhokama.

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy: Adabiyot fanining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish jarayonida o'quvchilarda estetik did, estetik ong, ona tilimizga muhabbat, badiiy tafakkur va tasavvurini kamolga yetkazish va barkamol avlod tarbiyasiga zamin yaratish.

b) tarbiyaviy: Adabiyot fani orqali o'quvchilarga DTS asosida dars berish. Shu bilan bir qatorda milliy iftihor, qadriyat sifatida e'tirof etish va uni hurmat qilishga o'rgatish.

c) rivojlantiruvchi: O'quvchilarni tafakkur va idrokini kengaytirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish):

Berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi;

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	aralash yoki kombinatsiyalashgan: shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi
Dars metodi:	"Aralash", "Interfaol metodlar", "Guruhlarda ishlash", "Ushbu matnning qismini top?", "Aqliy hujum"

Dars jihozi:	darslik, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT
--------------	--

DARSNING BLOK CHIZMASI:

№	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog'lash	8 daqiqa
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangi mavzuni tushuntirish	14 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	Dars yakuni va baholash	G'olib guruhni aniqlash, rag'batlantirish. Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa



DARSNING BORISHI

I. Tashkiliy qism.

Darsning borishi

Darsning tashkiliy qismi:

- O'quvchilar bilan salomlashish
- O'quvchilar davomatini aniqlash
- Sinfni darsga tayyorgarligini tekshirish

- Haq yo'linda kim
senga bir harf
o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas
ado, oning haqin
yuz ganch ila.

Alisher
Navoiy



Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

"O'zbekiston respublikasi prizidenti
SH.Mirziyayevni oliy majlisga murojaat
nomasi " roligi orqali siyosiy bilimini boyitish
va o`quvchilarning darsga tayyorgarligini
tekshirish.

II. K i r i s h:

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning
muborak hadislaridan biri :

**" Ilm -sahroda do'st,
hayot chorrahalarida - tayanch,
yolg'iz damlarda - yo'ldosh,
bahtiyor daqiqalarda - rahbar,
qayg'uli damlarda madadkor,
odamlar orasida - zebu ziynat,
ushmanga qarshi kurashda - quroldir.**


Bu so'zlar bilan o'qituvchi o'quvchilarni
ilmu marifatga da`vat etadi.

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

1.1. O'qituvchi o'quvchilarga darsning oltin qoidasini aytib o'tadi hamda o'quvchilar ushbu darsning oltin qoidalariga amal qilish kerakligi ta'kidlanadi.


- "Ong qo'l qoidasi" ga rioya qilish;
- O'zaro hurmat, o'zgalar fikrini tinglay olish;

Darsning oltin qoidasi




- Diqqat - e'tiborlilik, tezkorlik va topqirlik
- Vaqtga rioya qilish.

Darsning oltin qoidasi



- Qoidani unutma, Ma'nodan uzoq ketma. Gapni cho'zma oz gapir, Keng ma'noli soz gapir.

Darsning oltin qoidasi



1.2. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish:

1.3. Kunning muhim voqealari aytib o'tiladi:

O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

“Guruhlarda ishlash”

O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uyga berilgan mavzu bo'yicha qisqacha ma'lumot berishadi.

III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish:

Yulduzli tunlar" — o'zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirov qalamiga mansub tarixiy roman. Asarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti haqida so'z yuritiladi. Muallif mazkur roman ustida o'n yil davomida ish olib borgan., „Yulduzli tunlar"ga „Boburnoma" hamda „Humoyunnoma" asarlari asos bo'lgan. Bu asar dunyoga mashhur o'zbek hukmdori, atoqli shoir, o'z davrining qomusiy bilimlari bilimdoni Zahiriddin Muhammad Bobur hayotiga bag'ishlangan asar bo'lib, zamonaviy o'zbek romanchiligining yetuk namunasi hisoblanadi. O'zbekiston Xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov ushbu roman o'zining talabalik yillaridagi Amir Temur va Bobur Mirzo shaxslariga ixlosmandligi hosilasi ekanini aytgan.

Asar faqatgina Bobur hayotiga bag'ishlanmay balki oddiy qora xalqning kechmishlarini ham tasvirlab bera olgan, shuni hisobga olib asar quvalik oddiy dehqon farzandi bo'lgan Tohir va Robiyaning sevgi qissasi bilan boshlanadi. Quvaga yov bostirib kelayotgani xabari berilganda xalq sarosimaga tushadi ammo jangchilar dushmanlarga hech narsa qila olishmasliklarini anglab Tohir hamda do'stlari kelishib tunda hech kim yo'qligidan foydalanib Quvaga kirish yo'lidagi Quvasoy ko'prigini arralab, qanotlarining ancha joyini sindirib tashlashadi. Tongga yaqin dushman askarlarining ba'zilari ko'prikdan siyrak saf bilan o'tib ketishadi ammo ulardan keyin kelayotgan saflari juda qalin bo'lganligi tufayli ko'prik sinib ketib ko'p sonli jangchilar va tuyalar soyda oqib ketadi. Ko'prik hodisasi sabab dushman tomon ko'p talafot ko'radi va sulh taklif qilishga majbur bo'ladi. Ne- ne beklarning qo'lidan kelmagan xaloskorlik

qablari vatanparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan tavakkalchi yigitlarning qo'lidan kelgani hammani hayratga soladi va haqiqiy qahramonlik nimaligini, yurtga, tug'ilib o'sgan makonga bo'lgan muhabbat qanday bo'lishini oddiy tuyulgani bilan katta jasorat talab qiladigan fidoiylilik bilan ko'rsatib berishadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

ta'lim markazi

MUHOKAMA QILAMIZ

1. "Yulduzli tunlar" romanidan tanlangan mazkur bob nega "Agra: yo hayot, yo mamot" deb nomlangan? Bob sizda romanning umumiy g'oyasi haqida qanday tasavvurlar uyg'otdi?
2. Bobda Boburga xos qanday xususiyatlarni kashf etdingiz? Fikringizni matn asosida dalillang.
3. Pirimqul Qodirov Bobur haqida shunday yozadi: "Amir Temur tajribasini eng chuqur o'rgangan va davom ettirgan temuriyzoda, menimcha, Boburdir. Bobur butun hayoti davomida Amir Temurning tuzuklaridagi purma'no so'zlardan juda ko'p ibrat olgan. Daho darajasidagi talant nuqtayi nazaridan qaraganda, Amir Temurga irsiy voris va yaqin avlod Bobur Mirzo deb aytish mumkin". Muallifning Bobur haqidagi qarashlari asardagi Bobur obraziga qanday ta'sir qilgan? Sizningcha, Bobur obrazida insonga xos kamchiliklarni ham kuzatish mumkinmi?

Yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

LOYIHA

"Yulduzli tunlar" romani asosida ishlangan "Bobur" videofilmidan Darveshgovning o'limga hukm qilinishi lavhasini tomosha qiling. Darveshgovning o'ldirilishiga rozilik bergan Bobur va malika Baydani o'limga hukm qilishdan bosh tortgan Boburni solishtirib esse yozing.



"SWOT-tahlil" metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarnimustahkamlash

takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• занф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

BADIY TAHLIL ASOSLARINI O'RGANAMIZ: KONFLIKT

Badiiy asar odatda **konflikt** (ziddiyat, qarama-qarshilik) asosiga quriladi. Konflikt har xil bo'lishi mumkin:

- bosh qahramonning boshqa qahramon (yoki qahramonlar) bilan ziddiyati;
- qahramonning tabiat kuchlariga yoki o'zini o'rab turgan muhitga nisbatan ziddiyati;
- qahramonning o'ylari, his-tuyg'ulari o'rtasidagi ziddiyat.

Konflikt syujetdagi voqealarni harakatga keltiradi va asar g'oyasi, qahramonlar xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Badiiy asar bir emas, bir necha konflikt asosida qurilishi ham mumkin.

Misol uchun, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida asar voqealari Anvar va Abdurahmon o'rtasidagi ziddiyat asosida rivojlanadi va bu voqealar orqali o'quvchi Anvar, Ra'no, Abdurahmon singari qahramonlarning xarakterini bilib oladi.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarida esa Hoshimjonning "o'qimadan odam bo'lish" istagi real voqelik bilan konfliktga kirishadi va natijada Hoshimjon turli kulgili vaziyatlarga tushib qoladi.

"Yulduzli tunlar" romanidan olingan bobda Boburning kim (yoki kimlar) bilan konfliktini kuzatish mumkin? Bu konfliktlar Bobur xarakterini ochib berishda qanday ahamiyatga ega?

O'quvchilar 3 ta guruhlariga bo'linadilar. O'qituvchi esa ularga olmada yozilgan savollar tarqatadi. Va doskaga 3 ta olma daraxti chiziladi. Qaysi guruh to'g'ri javob bersa olmalarni doskadagi olma daraxtiga yopishtiradilar. Qaysi guruhning daraxtida olmalar soni ko'p bo'lsa o'sha guruh g'olib bo'ladi.

“Ikki qismli kundalik” metodi

Bu metod o'rganilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning tushunchalarini shaxsiy tajriba bilan bog'lashga imkon beradi.

Maqsad: O'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuga qiziqishini uyg'otish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, tushunchalarni o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash. Tushunchalar va ularning izohi o'qilayotganda savol berish yoki mazkur tushuncha

yuzasidan o‘z izohini berishga ruxsat etiladi, biroq fikrlar takrorlanmasligi so‘raladi. Bunda o‘quvchilar individual (faol metod) yoki guruhlarda (interfaol metod) ishlashlari mumkin.

“Davra suhbat” metodi

Mazkur metod aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladi.

“Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stolstullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar.

So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va «javoblar varaqalari»ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini «javoblar varaqalari»ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga

uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

Moychechak metodi Doskaga moychechak guli 8 yaproqli qilib chiziladi yoki moychechak rasmi yopishtiriladi va har bir yaprog‘iga raqam qo‘yib chiqiladi. O‘qituvchi tomonidan 8 ta mavzuga oid savol tuzib kelinadi. Moychechak yaprog‘idagi har bir tanlangan raqam o‘chirib boriladi. Guruh a‘zolari tanlangan raqamlardagi savollar o‘qituvchi tomonidan o‘qiladi. Guruh o‘quvchilari tomonidan javob beriladi.



V Dars yakunlarini chiqarish.

1. O‘quvchilarda paydo bo‘lgan savollarga javob berish;
2. Baholarni e‘lon qilish.
3. O‘quvchilar aytib o‘tgan fikrlari to‘planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so‘nggi xulosasi chiqariladi.



VI. Uyga vazifa



Uyga vazifa. Berilgan topshiriqni bajarib kelish.